

**AXSIKENT TARIXIDA KULOLCHILIK, SHIYSHASOZLIK,
QUROLSOZLIK KABI HUNARMADLIK
TURLARNI RIVOJLANISH BOSQICHLARI**

Obidova Manira Mahmudjon qizi

Namangan Davlat Universiteti

“Tasviriy va amaliy Bezak San’ati fakulteti

2 kurs Magistratura talabasi”

E-mail: Obidovamaniraxon@gmail.com

Abdusattorova Nodiraxon Abduraxmon qizi

Namangan Davlat Universiteti

“Tasviriy va amaliy Bezak San’ati fakulteti

2 kurs Magistratura talabasi”

E-mail: Abdusattarovanodiraxon@gmail.com

Abdusattorova Munavvarxon Abduraxmon qizi

Namangan Davlat Universiteti

“Tasviriy va amaliy Bezak San’ati fakulteti

2 kurs Magistratura talabasi”

E-mail: Abdusattarovamunavvarxon@gmail.com

ANNOTATSIYA

Axsikent 19-asr oxirlaridan beri tarixchilar, etnograflar, sharqshunoslar, o‘lkashunoslar va ayrim harbiy odamlar diqqatini tortib kelgan. Arxeologik tadqiqotlar asosan keyingi 10 yilda keng qamrovli olib borilmoqda. A. Anorboev, I. Axrorov boshchiligidagi olib borilgan qidiruv ishlari shaharni uch katta tarixiy davrni bosib o‘tganligi va shunga yarasha territoriyani qamrab olganligini kursatadi. Ya’ni antik, mo‘g‘ullar va temuriylar davri Axsikenti bo‘lgan. Tarixiy manbalarda, xususan, “Boburnoma”da bu kentning alohida ahamiyati haqida ko‘p yozilgan. Qadimdan bu yerda yer osti suv inshooti bo‘lgani bois mudofaa uchun qulay sanalgan. Shahar Ark, ichki va tashqi shahardan iborat bo‘lgan. Bu yerda o‘z davrida shishasozlik, kulolchilik, temirchilik, qurolsozlik kabi hunarmandlik turlari rivojlangan haqida so‘z olib boriladi.

Kalit so‘zlar: Shahar, ark, shiyshasozlik, temirchilik, kulolchilik, Xondoq, poytaxt.

ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ ВИДОВ РЕМЕСЕЛ, ТАКИХ, КАК ГЕРЯЧНОЕ, СТЕКОЛЬНОЕ И ОРУЖЕЙНОЕ В ИСТОРИИ АКСИКЕНТА

Обидова Манира Махмуджоновна

Наманганский Государственный Университет "Факультет
изобразительного и прикладного декоративно-прикладного
искусства Студент 2 курса

E-mail: Obidovamaniraxon@gmail.com

Абдусатторова Нодирахан Абдурахмановна

Наманганский Государственный Университет "Факультет
изобразительного и прикладного декоративно-прикладного
искусства Студент 2 курса магистратуры"

E-mail: Abdusattarovanodiraxon@gmail.com

Абдусатторова Мунаввархан Абдурахмановна

Наманганский Государственный Университет "Факультет
изобразительного и прикладного декоративно-прикладного
искусства Студент 2 курса магистратуры"

E-mail: Abdusattorovamunavvarxon@gmail.com

АННОТАЦИЯ

С конца 19 века Ахсикент привлекает внимание историков, этнографов, востоковедов, краеведов и некоторых военных. В ближайшие 10 лет будут активно проводиться археологические исследования. Исследования, проведенные под руководством А. Анорбоева и И. Ахророва, показывают, что город прошел через три основных исторических периода и соответственно охватил территорию. Другими словами, это был Ахсикент в период Античности, монголов и тимуридов. Исторические источники, особенно «Бобурнома», много пишут об особом значении этого города. С давних времен здесь находился подземный водный объект, поэтому он считался удобным для обороны. Город состоял из Арка, внутреннего и внешнего города. Здесь говорится о развитых видах ремесел, таких как стекольное, гончарное, кузнечное, оружейное.

Ключевые слова: Город, арка, стекольный завод, кузница, гончарное дело, Хандок, столица.

THE STAGES OF DEVELOPMENT OF CRAFT TYPES SUCH AS POTTERY, GLASSWORK, AND WEAPONS IN THE HISTORY OF AXISKENT

Obidova Manira Mahmudjon qizi

Namangan State University
Faculty of fine and applied
Decorative Arts 2 course Master's student"
E-mail: Obidovamaniraxon@gmail.com

Abdusattorova Nodiraxon Abdurakhman qizi

Namangan State University
Faculty of fine and applied
Decorative Arts 2 course Master's student"
E-mail: Abdusattarovanodiraxon@gmail.com

Abdusattorova Munavvarxon Abdurakhman qizi

Namangan State University
Faculty of fine and applied
Decorative Arts 2 course Master's student"
E-mail: Abdusattarovamunavvarxon@gmail.com

ABSTRACT

Akhsikent has attracted the attention of historians, ethnographers, orientalists, local historians and some military people since the end of the 19th century. Archeological research is being carried out extensively in the next 10 years. A. Anorboev, IThe excavations led by Akhrorov show that the city passed through three major historical periods and covered the territory accordingly. that is, it was Aksikenti during the period of antiquity, Mongols and Timurids. In historical sources, in particular, in "Boburnoma", a lot is written about the special importance of this city. Since ancient times, there was an underground water facility here, so it was considered convenient for defense. The city consisted of Ark, inner and outer city. Here, there is talk about the development of crafts such as glassmaking, pottery, blacksmithing, and weaponry.

Keywords: city, arch, glassworks, smithy, pottery, Khandok, capital.

KIRISH

Axsikent eramizdan avvalgi III asrda tashkil topgan bo‘lib, qadimgi Farg‘ona davlatining poytaxti, Buyuk ipak yo‘lining asosiy shaharlaridan biri bo‘lgan. Tarixiy manbalarda, xususan, “Boburnoma”da bu kentning alohida ahamiyati haqida ko‘p yozilgan. Qadimdan bu yerda yer osti suv inshooti bo‘lgani bois mudofaa uchun qulay sanalgan. Shahar Ark, ichki va tashqi shahardan iborat bo‘lgan. Bu yerda o‘z davrida shishasozlik, kulolchilik, temirchilik, qurolsozlik kabi hunarmandlik turlari rivojlangan. 1219 yilda mo‘g‘ullar tomonidan shahar butunlay vayron qilingan. Qasrning eski o‘rnidan 5-7 kilometr g‘arbda bunyod etilgan yangi shahar Axsi 14-17 asrlarga oiddir. 1620 yillarga kelib zilzila oqibatida ulkan shahar vayron bo‘lgan. Bugungi kunda xarobalarning 60 gektarga yaqin qismi saqlanib qolgan bo‘lib, Farg‘ona vodiysidagi eng katta arxeologik yodgorlikdir. Arxeologlar tomonidan temirchilar ustaxonasi, X-XIII asrlarga oid hammom qoldiqlari, askarlar xonalari, jome’ masjidi, mudofaa devorlari, yer osti irrigatsiya tarmoqlari, hunarmandlar mahallasi, hukmdor qarorgohi – Ark qazib o‘rganilgan. Axsikat xarobalaridan g‘arbroqda o‘rta asrlarga oid yana bir shahar xarobalari borligi aniqlangan. Akademik Ya. G‘ulomov va arxeolog I. Ahrorov mazkur tadqiqotlar asosida bu yerda turli davrlarga oid ikkita shahar bo‘lganini, ulardan biri qadimgi Axsikat va ikkinchisi Bobur tug‘ilgan Axsi ekanini birinchi bo‘lib isbotladi. uni poytaxt qilgan Umarshayx mirzo bir-ikki marotaba tashqariroqdan yana jarlar qazdirdi. Farg‘onada bunchalik mustahkam qo‘rg‘on yo‘q. Mahallalari qo‘rg‘ondan bir shar‘iy yiroqroqda joylashgan. “Qishloq qayerdayu, daraxtlar qayerda?” maqolini aftidan Axsi uchun aytganlar. Qovuni yaxshi bo‘ladi. Bir nav qovunini “mirtemuriy” deydilar, bunday qovunning boshqa joyda ham borligi ma’lum emas. Buxoro qovuni mashhurdir. Samarqandni olgan paytimda Axsidan, Buxorodan qovun keltirib, bir o‘tirishda so‘ydirdim. Axsi qovunining hech misli yo‘q edi. Ovlanadigan qushlari behad yaxshi bo‘ladi. Sayhun daryosining Axsi tarafi dashtdan iborat. Oq kiyigi ko‘p bo‘ladi. Andijon tarafi to‘qay; bug‘u-maral, qir-g‘ovul va yovvoyi quyon ko‘p. Aksari juda semiz bo‘ladi», deb yozgan buyuk sarkarda. Axsikentda tayyorlangan qurollar «Damashq qilichlari» nomi bilan dunyoga mashh-ur bo‘lib, G‘arbda Damashq, Sharqda Xitoy bozorlarida sotilgan. Axsi va unga yondosh hududlardagi olib borilgan so‘nggi qazishma natijasida ko‘plab noyob topilmalarni qo‘lga kiritildi.

Shuningdek, bugungi kunda Namanganda «Axsi sayyidlari» ilmiy-ma’rifiy, me’moriy majmuasida muzey faoliyat ko‘rsatmoqda. Axsi osori-atiqalar muzeyida ayni paytda 516 ta eksponat mavjud. Prezident Shavkat Mirziyoyev topshirig‘iga binoan, Axsikent tarixiy yodgorligini asrab-avaylash va tadqiq etish, uning haqqoniy tarixini yaratish bo‘yicha ulkan ishlar boshlandi. “Axsikent” arxeologiya merosi

obyektini muhofaza qilish va tadqiq etish direksiyasi» davlat unitar korxonasi tashkil etildi.

Mazkur yodgorlik Namangan viloyatining sayyohlik salohiyatini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Yurtimiz va xorijdagi sayyohlik ko'rgazmalarida qadimiy Axsikent haqida ham taqdimotlar o'tkazilmoqda. Buning samarasida mahalliy va xorijiy sayyohlar o'rtasida tarixiy yodgorlikka qiziqish ortmoqda. Hozirga qadar Belgiya, Avstriya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Rossiya, Eron, Pokiston, Hindiston kabi davlatlardan sayyohlar tashrif buyurgan. Qadamjoni tadqiq etish, uning jozibadorligini va sayyohlar oqimini oshirish maqsadida maxsus konsepsiya ishlab chiqilgan. Ayni kunda shu asosda Farg'ona vodiysida ichki turizmni rivojlantirish choralari ko'rilmogda. Ayni paytda Prezidentimizning ko'rsatmalariga binoan, bu yerda katta muzey tashkil etilmoqda. Axsikentning qadimiy dovrug'ini tiklash maqsadida ramziy darvoza quriladi. Kamoliddin Behzod chizgan suratlar asosida Umarshayx Mirzo va Boburning yodgorliklari bunyod etiladi. Sayyohlar uchun Sirdaryo bo'ylab qayiqlarda sayr qilish, tuyada ko'hna shaharni tomosha qilish imkoniyati yaratiladi. Axsikent yodgorligi YUNESKO Butunjahon madaniy merosi obykti hisoblanadi. Tarixi eramizdan avvalgi IV asrlarga borib taqaluvchi bu noyob yodgorlikni chuqur o'rganish, qadim poytaxt shahar tarixi bilan yurtdoshlarimiz, xorijiy sayyohlarni tanishtirish viloyatda turizmni rivojlanishi uchun keng imkoniyatdir. Namangan viloyati To'raqo'rg'on tumani hududidagi Axsikent tarixiy yodgorligiga oid ma'lumotlarda qayd etilishicha, bu yerda IX-XII asrlarda hunarmandchilik, xususan, kulolchilik va temirchilikning o'ziga xos maktabi yaratilgan. Tabiat manzaralari, ro'zg'or ashyolari va ajdodlarimiz qiyofasi akslangan nafis kulolchilik buyumlari ajdodlarimiz nihoyatda iqtidorli bo'lishganidan guvohlik beradiki, ularning ayrimlari Parijdagi mashhur Luvr muzeyi, noyob shisha buyumlar esa Toshkent, Moskva, Sankt-Peterburg muzeylarining qimmatbaho eksponatlari qatoridan o'rin olgan. Davlatimiz rahbari e'tibori tufayli Axsikentni ochiq osmon ostidagi muzeyga aylantirish bo'yicha loyihalar ishlab chiqilgan. Ular bosqichma-bosqich amalga oshirilishi bilan sayyohlar uchun ko'hna shahar osori atiqalaridan bahramand bo'lishning keng imkoniyatlari yaratiladi. Axsikent xarobalarining yana bir muhim jihati, uning tuprog'i bebaho. Tarixiy obidaning o'ng tomonida joylashgan qismidagi, tarkibida yopishgan modda bo'lgan tuproq azaldan hunarmandlar e'tiborini tortibkeladi. Mahalliy yosh kulollardan biri - Husanboy Murodov ham mana shu tuproqdan yigirma turga yaqin esdalik buyumlari yasamoqda. Uning qalb va qo'l tafti bilan sayqal topgan kulolchilik buyumlari hozirgacha Yaponiya, Rossiya, Belarus, Hindiston, Xitoy, AQSH kabi davlatlardan tashrif buyurgan nufuzli mehmonlar va sayyohlar orqali dunyo kezmoqda.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, IX-XII asrning boshlarida Fargʻona – Axsikent shahrining ustasi farang hunarmandlari qattiq va yumshoq poʻlatlar ishlab chiqarish sirlarini bilishgan. Ular tayyorlagan qilichlar Sharqda Xitoy va Janubi-gʻarbda xalifalik markazi Damashq bozorlarida sotilgan. Oʻrta asrlarda butun Yevropaga “Damashq qilichlari” nomi bilan mashhur boʻlgan qurollarning maʼlum bir qismining vatani Fargʻona-Axsiket hisoblangan. Mazkur yodgorlik Namangan viloyatining sayyohlik salohiyatini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Yurtimiz va xorijdagi sayyohlik koʻrgazmalarida qadimiy Axsikent haqida ham taqdimotlar oʻtkazilmoqda. Buning samarasida mahalliy va xorijiy sayyohlar oʻrtasida tarixiy yodgorlikka qiziqish ortmoqda. Hozirga qadar Belgiya, Avstriya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Rossiya, Eron, Pokiston, Hindiston kabi davlatlardan sayyohlar tashrif buyurgan. Qadamjoni tadqiq etish, uning jozibadorligini va sayyohlar oqimini oshirish maqsadida maxsus konsepsiya ishlab chiqilgan Eski Axi yodgorligini ziyorat qilgan sayyoh har qadamda poʻlat ishlab chiqarish bilan bogʻliq chiqindilar va ustaxona xarobalarini koʻradi, yuqorida aytilgan gaplarning tasdigʻini topadi. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan Axsikent yodgorligi hududida 2018-yilning ikkinchiyarmidan “Ochiq osmon ostida muzey” tashkil qilish ishlari boshlab yuborilgandi. Natijada, 2019-yil fevraloyining oxirlarida Oʻzbekistonda birinchi boʻlib ushbu arxeologik obyekt zamon talablariga toʻliq javobberadigan ochiq osmon ostidagi muzeyga aylantirildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI: (REFERENCES)

1. Abdullaev N.U. “Sanʼat tarixi” T-1. Toshkent, “Ukituvchi”, 1987 yil
2. Oydinov N. “Oʻzbekiston tasviri sanati tarixidan lavkhdlar”, Toshkent. Ukituvchi 1997 yil.
3. N. Oydinov. Azhdodlarimiz sanati va etikodi. Toshkent. “Ukituvchi” 1992 yil.
4. Dmitrieva I.A. “Sanʼatning qisqacha tarixi”. Insholar jild. 1.1.M. 1968-1975 yillar.
5. Oidinov N. Rassom ukdtuvchilar tayorlash muammolari. - Toshkent: Utsituvchi - ziyo-noshir, 1997. - 214 b.
6. Oripov B. Tasvirii sanat asoslari. - Namangan, 1994. - B. 56 b.
7. Oripova B. Sanat Nazariyasi. - Namangan, 2000. - 22 b.